

O`SMIRLARDA IJTIMOYIY TARMOQLARGA TOBELIKNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Isokulov Farrux Shuxrat o`g`li

Nizomiy nomidagi TDPU Amaliy psixologiya yo`nalishi 3 kurs talabasi

Bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar va chiqarilayotgan qarorlar biz yoshlar taqdiri uchun nechog`lik ahamiyatli ekanligi xech kimga sir emas. Davlatimiz siyosati har tomonlama yoshlarni qo`llab-quvvatlashga qaratilganiga barchamiz guvoh bo`lmoqdamiz. Men oliy ta`limda taxsil olar ekanman, bugungi yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarni ko`rib, mendagi buyuk kelajakka bo`lgan ishonch tobora ortib borayotganini sezyapman. Biz yoshlarga berilayotgan shart-sharoitlar kishini quvontiradi. Har bir amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarni yanada bilim olishi, izlanishi, sport bilan shug`ullanishini talab etmoqda. Men g`urur va iftihar bilan aytishim mumkinki yoshlarga e`tibor kelajakka e`tibor demakdir. Hozirgi kunda internet tarmoqlaridan foydalanish kundalik turmushga aylanib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning foydali va samarali tomonlariniham ko`rishimiz mumkin. Masalan mobil telefonlar orqali yaqinlarimiz bilan muloqot jarayonlari ish faoliyatlarini tezlik bilan hal qilishimiz, google, youtube va telegram tarmoqlaridan o`zimizga kerakli bo`lgan malumotlarni tezda olishimiz mumkin. Hozirgi vaqtda talabalar uchun ham qulayliklar yaratimoqda shu jumladan o`quv jarayonlarining model kiridit tizimiga o`tishi malumotlarni elektron shaklida hemis platformasiga joylash, talabalarga qulayliklar tug`dirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning foydali tomonlari ko`p bo`lganday uning salbiy va dolzarb tomonlariniham unutmasligimiz lozim. Internet bu – hozirgi zamon talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog`i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya`ni ongimizga mavhum bo`lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma`lumot beruvchi axborot manbaidir. Tabiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo`lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo`lsada, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda. Ayniqsa bu ta`sir doirasidan o`smir yoshlar ham yo`q emas.

Shuningdek, Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta`lim olish huquqining yoshlar uchun kafolatlangani ham e`tiborga molikdir. Yoshlar o`z iqtidor va iste`dodlarini to`la namoyon etishga haqlidirlar. Hozirgi kunda prezident maktablari, Temurbeklar maktabi, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarda yoshlarga berilayotgan zamonaviy ta`lim-tarbiya Yangi Renessansning mustahkam poydevori bo`lsa, oliy ta`lim sohasidagi islohotlar va imkoniyatlar ustunidir.

Davlatimiz rahbari tomonidan yosh avlodni shakllantirishga qaratilgan tarbiya masalalariga alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev deyarli barcha islohotlarning poy-devori sifatida yoshlarni qo`llab-quvvatlash siyosatida ko`rayotganining yaqqol tasdig`i sifatida boshlang`ich, o`rta va oliy ta`lim islohotlarini ko`rishimiz mumkin. Bu islohotlarning yutug`i esa, bu sohadagi korrupsiyaga qarshi kurashni, hamda yoshlarning davlat va qonunlarga ishonchini ortirmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda chuqur, keng qamro`vli iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma`naviy islohotlar amalga oshirilmoqda. Jamiyat ma`naviy yuksalish va yangilanish sari yuz tutgan. Jamiyat ma`naviyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishi hisoblanadi. Mustaqilligimizning ilk yillaridanoq jismonan sog`lom, ma`nan etuk shaxs yaratishga e`tibor berila

boshlandi. Bu boradagi ishlarni aniq, maqsadli amalga oshirish uchun davlat ahamyatiga molik dasturlar, rejalar ishlab chiqildi. Mamlakat kelajagi uchun sog'lom, dunyoqarashi keng, ham jismonan ham ruhan sog'lom avlodlarni yaratish hamda ularni yetishtirish uchun psixologiya sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. So'nggi yillarda mamlakatda psixologiya sohasida pedagog kadrlarni tayyorlash hamda amalyotchi psixologlar faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan: Yurt boshimiz tomonidan axoliga psixologik xizmat ko'rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi qarori loyihasi e'lon qilindi. Psixologiya sohasiga qaratilayotgan bunday e'tibor uning sohasi bo'lgan tibbiyot psixologiyasining ham rivojiga xizmat qilmoqda. Inson salomatligi azaliy va ko'p qirrali masala bo'lib, hozirgi globallashuvning markaziy nuqtasida turadi. Jamiyatni muqarrar halokatdan olib qolish uchun sog'lom, baquvvat avlodni tarbiyalashimiz hayotiy zaruratdir.

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmazligini namoyon qilmoqda. Aksariyat odamlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq. Mobil telefonining yaratilishi insoniyat uchun haqiqiy inqilobdir. Eng achinarli tomoni yoshlarni ijtimoiy tarmoqqa bog'lanib qolishi kishini o'ylantiradi. Masalan, qo'l telefoni inson sog'ligiga zarardir. Mobil telefondan chiqayotgan nur inson miya hujayralariga jiddiy ta'sir qilib, uni turli xavfli kasalliklarga duchor etadi. Ammo bugungi kunda telefon o'smirlarimiz hayotidagi muhim vositalardan biriga ay-langan. Ko'pchilik yoshlarimiz ijtimoiy tarmoqlarga qaram bo'lib qolganini xattoki o'zlarixam sezishmaydi. Instagram, tik-tok va telegram tarmoqlarida xarxil bexayo videolarni ko'rib o'z-yaqinlariga nisbatan mexr-oqibat tuyg'usini yo'qotib qo'-yayotganday go'yo. Ko'cha-ko'yda yigit-qizlarning qo'lidan telefon tushmaydi. Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoq-lardan kun bo'yi foydalanishadi. Shu tariqa, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni ma'na-viyatli kishilarning fikri, deb bo'lmaydi, albatta. Ayniqsa, bugungi kunda etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riligini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati etadimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z fikrini bildirishadi. To'g'ri, hozir texnika asri, texnika imkoniyatlari cheksiz. Ba'zan katta yoshli insonlar ham telefonda soatlab gaplashishadi. Aslida telefondan foydalan-ganda qarama-qarshi tomon salomatligini bilish uchun 4 daqiqa etarli bo'lar ekan. Biz cheksiz internet, cheksiz telefon imkoniyatlariga o'rganib qolib, o'z atrofi-mizdagi voqealarga befarq qarayapmiz. Virtual olamda o'z tanishlarimiz bilan soat-lab gaplashyapmiz, kamiga virtual olamda sevyapmiz, do'stlashyapmiz, guldek oilamizni shu «do'st» lar bilan munosabatlar orqali buzyapmiz. Hozirgi kunga kelib butun dunyo uyali aloqa abonentlarining soni 1,9 milliardni tashkil qiladi. Yurti-mizda deyarli har ikki kishining birida uyali telefon mavjud. Uyali telefondan foydalanayotgan insonga uning ta'siri 15 soniyaga qadar sezilmaydi. Agar so'z-lashuv va foydalanish vaqtini oshirsa unda yaqqol o'zgarish seziladi, chunki alfa to'lqinlar miya faoliyatini yomonlashtiradi va o'zining to'lqin xususiyatlarini namoyon qila boshlaydi. Inson tanasining elektromagnit nurlanishlarga eng ta'sirchan qismi bosh bo'lib, aynan shu sohada so'zlashuv olib boriladi. Shuning uchun u insonda nurlanish jarayoni tezlashishini yana ham orttiradi. Mutaxassislar so'zlashuv jarayonidagi insonning qon bosimini o'lgaganida har xil yoshdagilarda bosim

ko'tarilishi aniqlangan. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, dunyoda har 20 ta insondan bittasi ushbu mobil aloqa nurlanishining qurboniga aylanmoqda. 2000 yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti uyali telefonlar zarariga oid Yevropa parlamentiga taqdim etgan hisobotida insonlarning saraton kasaliga chalinishida uyali telefonlarning ta'siri kuchli ekanini ta'kidlagan edi. Nemis mutaxassisleri kamerali va kamerasiz uyali telefonlarda elektromagnit nurlanishi bo'yicha test o'tkazishganda, kamerali telefonlarning nurlanishi sodda uyali telefonlarga qara-ganda ko'proq bo'lgan. Nurlanish asosan uyali telefondan so'zlashuv vaqtida chiqadi, lekin «kutish» holatida u nurlanishdan butkul xalos bo'lmaydi, chunki uyali telefon baza stansiyasiga o'zining tarmoq doirasida ekanligi, qo'ng'iroq, SMS va shu kabi ma'lumotlarni qabul qilishga tayyorligi haqida axborot berib turadi. Buni tunda uyali telefoniga «budilnik» qo'yib, yonida olib yotadigan foydalanuvchilar bilishlari foydadan xoli bo'lmaydi.

Uyali telefondan foydalanishga kelsak, uni so'zlashuv vaqtidagi «kutish» holatida quloqda emas, balki qo'lda ushlab turish, shuningdek, metropolitenda, xizmat doirasidan tashqarida, zarur bo'lmasa tunda, keraksiz paytlarda o'chirib qo'yish muhim. Bundan tashqari, ust kiyimning ichiga solib yurish tavsiya qilinmaydi. Uni iloji boricha qo'lda va yon xaltada olib yurish lozim. Shuningdek, uyali telefonni yosh bolalardan uzoqda tutish kerak. Saraton xastaligini o'rganish bo'yicha xalqaro agentlik va Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti mobil telefonlar odamlarda xavfli o'smalarni keltirib chiqarishini birinchi marta e'tirof etdi. Shu kungacha bu haqda faqat taxminlar aytib kelingan bo'lsa, endilikda nufuzli xalqaro tashkilotlar ham qo'l telefonlarining zarari haqida uzil-kesil fikr bildirishdi. Elektromagnit to'lqinlari hamisha salomatlik uchun zararli, deb hisoblab kelingan. Agar u to'g'ridan-to'g'ri har kuni quloqqa yo'naltirib turilsa, uning ichkarisidagi eshitish hamda ko'rish a'zolari (ko'z to'rpardasi) faoliyatini ta'minlaydigan asab to'qimalariga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi odamlar goho kuniga soatlab mobil telefonini quloqlaridan olishmaydi. Bu organizm uchun nihoyatda og'irlik qiladi.

Bosh miya to'qimalarining zararlanishi, ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, birdaniga emas, balki oradan 15-20 yil o'tgachgina aniq namoyon bo'ladi. Shu sababli ular yaqin kelajakda bosh miya o'smasi bilan xastalangan odamlar soni keskin oshib ketadi, deb hisoblashmoqda. Negaki, har kuni atigi 15 daqiqa mobil telefonda gaplashishning o'zi miyada saraton o'smasi hosil bo'lishi uchun etarlidir.

Bola o'smirligida mustaqil qaror qabul qilishni o'rganmasa, katta hayotda ham uni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. O'smirlik yillari – ota-onalar uchun ham, bolalar uchun ham murakkab davr. Bu yoshda farzandlar o'z fikrini eng to'g'ri deb hisoblashadi. Ota-onalar ham kichkintoy deb hisoblab yurgan bolasining endi o'z fikrini, o'z qarashlarini ayon qilishlarini qabul qilishlari qiyin bo'ladi. Ayniqsa, faqat bolasining g'amida yashaydigan onalarda bu jarayon qiyin kechadi. Bunda ular o'zlarini xuddi endi bolasiga keraksiz bo'lib qolganday his qilishlari mumkin. Bolalar ham o'zlarini aqlan katta bo'lganday his qilishsada, moddiy va jismoniy jihatdan ota-onaga tobe bo'lib qolaveradi. Barcha tushunmovchiliklar shundan kelib chiqadi. O'smir bolalar uchun o'zidan boshqa hamma nohaq. Agar ota-onasi tomo-nidan uning fikri rad etilsa, bola bu fikrda yanayam qat'iylashadi. Bunday vaziyatda ota-onalar uning fikrini hurmat qilishlarini sezdirishlari va shuning barobarida o'ylagan qarorlarining natijasi haqida maslahatlashishlari kerak bo'ladi. Bunda bolaga savollar berish orqali uni o'ylashga undab, to'g'ri qaror chiqarish imko-niyatini berish lozim. Har bir ota-ona farzandini turli muammolardan himoya qilishni istaydi. Ammo o'smir yoshda bola o'qishi, maktabi, baholari bilan bog'liq qarorlar qilishi va shu qarorlarining natijasiga javob berishni o'rganadi. Shu joyda ularga erkinlik berilmasa, katta hayotda ham doimo ularni kimdir boshqarishi kerak bo'ladi. O'smir noqobil

do'st tanlasa. Bola do'stga muhtoj. Bolani uyga qamash yoki kim bilandir do'stlashishini taqiqlash unda yanada katta qarshilik uyg'otadi. Farzandi noqobil do'st tanlagan ota-ona unga shunday boshqa bir jamoani yoki do'stni taklif qilishi mumkin. Masalan, bolaning birga o'ynaydigan do'stlarini ota-onasi yoqtirmaydi. Uni o'sha noqobil boladan ayirish uchun, farzandingiz u bilan vaqt o'tkazadigan paytni mo'ljallab boshqa bir davrani – sport to'garagi, qo'shimcha mashg'ulot kabilarni taklif qilishi kerak. Bunda majburlash yaramaydi, tanlash imkoniyatini berish kerak – shunda bola o'zi tanlov qilganday his qilishiga erishish mumkin. Har doim tarbiyada xotirjam ish tutish kerak, shoshilmaslik kerak. Chunki bola hali o'zini qidiraypti – unga o'zligini topishiga imkon bergan ma'qul. Agar maktabdagi do'sti ota-onaga yoqmasa, darsdan keyin maktabda ko'p ham ushlanib qolmasligiga erishish kerak. Ammo o'smir yoshda bolaning maktabini o'zgartirish yaxshi emas, o'smirlar yangi muhitga moslashguncha juda qiynaladi. Bolaga moti-vatsiya berish uchun. Ota-ona hamma narsani muhayyo qilishi bolada hech narsaga intilmaslikni keltirib chiqaradi. Barcha muammolarini ota-onasi hal qilib berishi – kelajakda uning hayotini ham ular boshqarishiga zamin yaratadi. Oqibatda ular kelgusida boshqalarning xohishlari bilan yashashga o'rganib qolib, qachondir afsuslanishadi. Shuning uchun o'smirlarda kelajak haqida o'ylash, to'g'ri qaror qabul qilish uchun imkon va tushuncha berishda yordam ko'rsatish kerak. «Sen kelajakda nima qilmoqchisan? Kim bo'lmoqchisan?» kabi savollar bolani o'ylashga majbur qiladi. Birdaniga javob bermasligi mumkin, ammo vaqt o'tib bu haqda o'ylab ko'radi. Ularga o'zi yoqtirgan biror mashhur shaxslarni namuna qilib ko'rsatish ham unga motivatsiya berishi mumkin. Aslida ota-ona bolaga hamma narsani yaratib bermasligi, u nimagadir intilishi, orzu qilishi uchun imkon qoldirishi kerak. Nimagadir o'z mehnati bilan erishsa, u uchun qadrli bo'ladi. Jinoyatga moyil yoki xato qilgan bolalarni to'g'ri yo'lga solish mumkin! Yoshligida etarlicha mehr ko'rmagan bolalar o'smirlikda jinoyat qilishga ko'proq moyil bo'lishadi. Ular buni xohlashmasa ham, o'zlari sezmaganda holda ota-onalari, atrofdagilar va umuman dunyo bilan o'chakishib jinoyat qiladi. Bunday holatlarda psixologlar bilan ishlash yordam berishi mumkin. Bunday vaziyatda ota-onalar bolaga ta'sir o'tkazmoqchi bo'lishlari to'g'ri bo'lmaydi, chunki boladagi bu yaralar ularning xatosi tufayli yuzaga kelgan. Bolangiz o'qituvchisidan shikoyat qilganda. Ota-ona farzandi oldida uning o'qituvchisi haqida hurmat bilan gapirishi lozim. Bu bilan bolada ustoziga nisbatan hurmat paydo bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida nizoli vaziyat kelib chiqqanda bolaning his-tuyg'ularini ham eshitish, uni doim tushunishlarini anglatish yaxshi samara beradi. So'nggi paytlarda shunday vaziyat yuzaga kelganda borib o'qituvchini urib kelayotgan ota-onalar ko'paydi. Bunda ular yutqazadi, bu holat oqibatida sinfdoshlarida bolaga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'lishi, bola bundan keyin ham o'z munosabatlarini shunday hal qilishga o'rganishi mumkin. Bu bilan ular farzandiga juda yomon namuna ko'rsatishadi. Shunday tushunmovchilik holati sodir bo'lganda o'qituvchi bilan vazmin gaplashish va farzandining ruhiyati haqida tushuntirish, uning sinfdagi obro'sini tiklash, o'ziga ishonchini orttirish uchun maslahatlashish kerak bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni yaxshilash uchun bolani o'sha o'qituvchiga qo'shimcha darslarga berish ham yaxshi natija berishi mumkin. Bu bilan bola yoqtirmagan odamlari bilan ham munosabat qurish mumkinligi, hamma narsaga imkon topish mumkinligini anglaydi.

Buyuk bobokolonlarimiz farzand tarbiyasi xaqida quyidagicha fikirlar bildirgan.

Farobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan, bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi ahloq

va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarini bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmi va dono kishilarni xurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin».

Bu fikrlardan Farobiyning ta'lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib yetishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiyasi va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota – ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Axloqiy tarbiyada eng muxim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suxbatga bo'lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan o'zviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan bolab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritarkan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi.

Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Mirzo Ulug'bekning oila muhiti sog'lom avlodni yetishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, xavasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muxim o'rinni egallaydi. Oilada ota – onalar ayniqsa o'qimishli ota – onalar o'z farzandlarining haqiqiy inson bo'lib kamol topishiga aloxida e'tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o'zida yaxshi odat va fazilatlar xosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo'lgan ruxiy ma'naviy ta'sirlari natijasida tarkib topadi deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligi o'qtiradi.

Umuman olganda bugungi kunda nafaqat o'smirlar balki kichik maktab yoshidagi bolarning ijtimoiy tarmoqlardan ongsiz tarzda foydalanishlarini ota – onalar tomonidan muntazam nazoratga olishlari maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Farzandingiz kelajagiga be-etibor bo'lmang ma'lumki, yosh avlod tarbiyasida oilaning o'rni beqiyosdir. Farzand tarbiyasi oiladan boshlanadi. Oila bolaning jismoniy kamolotidagina emas, balki ma'naviy kamolga yetishida ham muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Farzand tarbiyasi ota-ona va jamiyat oldidagi eng zarur va e'tibortalab vazifa hisoblanadi. Farzandning jismoniy, ruhiy va aqliy kamolotiga bolalikdan e'tibor qaratish lozim. Odamning inson sifatida shakllanishi ham uning bolaligidan boshlanadi. Yaxshi, go'zal tarbiya olgan bolalar ulg'aygach, xush axloqli, go'zal odobli insonlar bo'lib yetishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sh.M.Mirziyoyev-Erkin Va Farovon Demokratik O'zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz.
2. Shavkat Mirziyoev Yangi O'zbekistonda Erkin va Farovon Yashaylik.
3. Z. Nishonova, G. Alimova Bolalar psixologiyasi va uni o`qitish metodikasi.
4. E. G`oziyev yosh davrlar psixologiyasi.

Internet saytlari.

<https://www.savol-javob.com/sharq-mutafakkirlarining-farzand-tarbiyasi-haqidagi-fikrlari/>
<https://avitsenna.uz/psixolog-farzand-tarbiyasi-tavsiyalar/>
<https://gujum.uz/savol-javob/bola-tarbiyasi-muqaddas>
[https://yuz.uz/uz/news/tarbiya--buyuk-nemat.](https://yuz.uz/uz/news/tarbiya--buyuk-nemat)